

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 338:330.322:336.76(575.1)

SHOMIROV AZIZBEK ABDURASHIDOVICH

**IQTISODIYOTGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA
QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI ROLINI OSHIRISH**

08.00.07-«Moliya, pul muomalasi va kredit»

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy
darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA

Ilmiy maslahatchi: Omonov Akrom Abdinazarovich,
Iqtisod fanlari doktori, professor

Toshkent shahri – 2025 yil

MUNDARIJA		bet
	KIRISH.....	3
I BOB.	IQTISODIYOTGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI FAOLIYATINING NAZARIY ASOSLARI VA EVOLUTSIYASI.....	4
1.1-§.	Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatining nazariy-metodologik asoslari: nazariy qarashlar va yondashuvlar.....	4
1.2-§.	Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda qimmatli qog‘ozlar bozorining ahamiyati va zaruriyati hamda tadrijiy rivojlanishi.....	40
1.3-§.	Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda qimmatli qog‘ozlar bozorining segmentatsiyasi va funksiyalari.....	62
	Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	77
II BOB.	IQTISODIYOTGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI FAOLIYATINING REGULYATIV ASOSLARI HAMDA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR.....	79
2.1-§.	Qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha jahon amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	79
2.2-§.	O‘zbekiston iqtisodiyotiga qimmatli qog‘ozlar bozori orqali investitsiyalar jalb qilishning tashkiliy-huquqiy asoslari.....	105
2.3-§.	O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarning tasniflanishi hamda ularning tavsifi.....	122
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	136
III BOB.	IQTISODIYOTGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI FAOLIYATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: MILLIY VA XALQARO AMALIYOT.....	138
3.1-§.	Qimmatli qog‘ozlar bozori orqali jalb qilingan investitsiyalarning xorij amaliyoti tahlili.....	138
3.2-§.	O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozoriga investitsiyalar jalb qilish amaliyoti tahlili.....	166
3.3-§.	Iqtisodiyotga qimmatli qog‘ozlar bozori orqali xorijiy investitsiyalar jalb qilishga ta’sir etuvchi omillarni baholash.....	186
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	203

IV BOB. O‘ZBEKISTON	IQTISODIYOTIGA	
INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA QIMMATLI		
QOG‘OZLAR BOZORI FAOLIYATINI EKSTENSIV		205
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....		
4.1-§. Mamlakatimizda qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini rivojlantirish muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari.....		205
4.2-§. Xalqaro tajribalar asosida O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini takomillashtirish masalalari.....		221
4.3-§. O‘zbekiston iqtisodiyotiga qimmatli qog‘ozlar bozori orqali investitsiyalar jalb qilish istiqbollari.....		234
To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosa.....		247
XULOSA.....		247
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....		250
ILOVALAR.....		262

KIRISH (Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon hamjamiyatida kuzatilayotgan nobarqaror geosiyosiy vaziyat va iqtisodiy shart-sharoitlar yirik kapital egalari bo'lgan turli investorlarni o'ta sinchkovlik bilan harakat qilishga undamoqda. Xalqaro amaliyot ko'rsatmoqdaki, bunday vaziyatlarda qimmatli qog'ozlar bozori orqali ishonchli moliyaviy instrumentlarga investitsiyalarni yo'naltirish maqbul yechim sifatida namoyon bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar bozori (QQB) orqali asosan portfel investitsiyalar oqimi kirib keladi va har qanday mamlakat iqtisodiyotida uning yetakchi o'rnini belgilab beradi. Xalqaro valyuta fondi (International Monetary Fund) ma'lumotlariga ko'ra, "2024-yil boshiga kelib jahonda portfel investitsiya aktivlari (Portfolio Investment Assets) umumiy qiymati 80,3 trln. AQSh dollaridan oshgan bo'lsa, aynan o'zlashtirilgan shu turdagi investitsiyalar hajmida (Portfolio Investment Liabilities) AQSh 30 foizlik ulushga egalik qiladi, Birlashgan Qirollik, Lyuksemburg va Kayman orollari kabi davlatlar har biri 6 foizlik, Fransiya, Irlandiya 5 foizdan, Germaniya va Yaponiya kabilar 4 foizdan, Kanada hamda Niderlandiya 3 foizdan, qolgan dunyo mamlakatlari esa umumiy 28 foizlik ulushga egalik qilmoqda"¹. Bundan tashqari Securities Industry and Financial Markets Association (SIFMA) tashkilotining yillik hisobotlariga ko'ra, "2024-yil boshida global aksiyalar bozori kapitalizatsiyasi 115 trln. AQSh dollarini, global daromadi belgilangan qimmatli qog'ozlar bozori umumiy qiymati esa 140 trln. AQSh dollarini tashkil etgan"². Ushbu raqamlardan ma'lum bo'lmoqdaki, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda QQB rolini mustahkamlash, milliy fond bozoriga turli toifadagi investorlarni jalb qilish orqali uning jozibadorligini oshirish hamda erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarning YaIMdagi ulushini ko'paytirish kabi masalalar sohada ijobiy o'zgarishlarga erishishda dolzarb sanaladi.

Jahonda xalqaro darajada qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini yanada

¹ Xalqaro valyuta fondi rasmiy sayti <https://data.imf.org/?sk=b981b4e3-4e58-467e-9b90-9de0c3367363> Twelfth Meeting of the IMF Committee on Balance of Payments Statistics маълумотлари Table 12, 13.

² Securities Industry and Financial Markets Association <https://www.sifma.org/resources/general/2024-capital-markets-outlook/> маълумотлари.

rivojlantirish, fond bozorlari orqali investitsiyalar oqimini ko'paytirish hamda iqtisodiyotda QQBning rolini oshirish borasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu ilmiy izlanishlarda qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish, uning asosiy infratuzilmaviy instituti hisoblangan fond birjalari faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiyotda QQBning rolini oshirish, QQB orqali investitsiyalar oqimini jadallashtirish, QQB rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'sir qilayotgan omillarni aniqlash hamda tahlil qilish, fond bozorida yangi instrumentlarni joriy qilish orqali investitsiyalarni diversifikatsiyalash, xorijiy fond bozorlariga integratsiyani jadallashtirish, sohani tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirish kabi malalalar tadqiq etilgan. Biroq, iqtisodiyoti endi rivojlanayotgan mamlakatlarda QQB va uning infratuzilmaviy institutlari faoliyatining barqaror emasligi, fond bozorida investorlarga taklif qilinadigan moliyaviy instrumentlar sonining kamligi yoki mavjudlaridan foydalanilmayotganligi kabilar iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda QQB rolini oshirish yuzasidan kompleks tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda QQBni har tomonlama rivojlantirish orqali uning iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilishdagi rolini mustahkamlash borasidagi ishlar davom ettirilmoqda. Ammo, bugungi kunda QQB orqali investitsiyalarni jalb qilishda, ayniqsa, davlat aksiya paketlarini xususiylashtirish uchun ommaviy savdolarga chiqarish bilan bog'liq jarayonlar yuzasidan qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar belgilangan vazifalarning kechikayotganligi, mamlakat YaIMda erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar ulushining 1 foizga ham yetmaganligi, QQBda umumiy aksiyadorlik kapitali tarkibida davlat ulushining yuqori ekanligi, fond bozorida yangi turdagi moliyaviy instrumentlarni joriy qilish amaliyotining kechikayotganligi kabi yechimini kutayotgan masalalar mavjud. Umuman olganda bugungi kunda milliy QQBning iqtisodiyotdagi rolini oshirish borasida aniq maqsadlar belgilab olingan, jumladan, "O'zbekiston-2030" strategiyasi 49-maqsadida erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar savdolari

hajmini 8 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo'yilgan"³.

³ <https://lex.uz/ru/docs/6600413> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son farmoni, www.lex.uz.